# BUXORO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
## (2020 -yil yanvar-sentabr oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.

2020- yil yanvar-sentabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 588,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 337,5 mln. AQSh dollariga yoki 36,5 % ga kamaydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)**




*Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko`rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o`rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o`rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o`z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo`yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o`rtasida o`tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

**BUXORO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO`LGAN DAVLATLAR (2020- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi,** *% da***)**

TSA da eksport hajmi 167,0 mln. AQSh dollariga (16,8 % ga kamaydi) va import hajmi 421,2 mln. AQSh dollariga (41,9 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida –254,2 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

| Top-10 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 165,3 | 24,1 | 141,2 | 28,1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 84,0 | 5,3 | 78,7 | 14,3 |
| Turkmaniston | 71,9 | 4,1 | 67,8 | 12,2 |
| Eron Islom Respublikasi | 61,7 | 51,6 | 10,1 | 10,5 |
| Turkiya | 55,9 | 9,5 | 46,4 | 9,5 |
| Qozog`iston | 32,3 | 10,0 | 22,3 | 5,5 |
| Afg`oniston | 19,5 | 19,4 | 0,1 | 3,3 |
| Qirg'iz Respublikasi | 18,9 | 18,7 | 0,2 | 3,2 |
| Koreya Respublikasi | 18,4 | 0,2 | 18,2 | 3,1 |
| Germaniya | 12,0 | 0,2 | 11,8 | 2,0 |

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

**Viloyatimizda, jahonning 60 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (28,1 %), Xitoy Xalq Respublikasi (14,3 %), Turkmaniston (12,2 %), Eron Islom Respublikasi (10,5 %), Turkiya (9,5 %), Qozog`iston (5,5 %), Afg`oniston (3,3 %), Qirg`iz Respublikasi (3,2 %) Koreya Respublikasi (3,1 %) va Germaniya (2,0 %) davlatlarida qayd etilgan.**

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Turkmaniston va Qozog`iston bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qozog'iston, Afg`oniston, Qirg`iz Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (165,3 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (83,9 mln. AQSh dollari), Turkmaniston (72,0 mln. AQSh dollari), Eron Islom Respublikasi (61,7 mln. AQSh dollari), Turkiya (56,0 mln. AQSh dollari) va Qozog`iston (32,3 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

## BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

| Davlatlar | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| **Rossiya Federatsiyasi** | **241,0** | **209,0** | **165,3** |
| Eksport | 15,3 | 22,9 | 24,1 |
| Import | 225,7 | 186,1 | 141,2 |
| Saldo | - 210,5 | - 163,2 | - 117,1 |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **87,5** | **166,3** | **83,9** |
| Eksport | 19,5 | 24,6 | 5,3 |
| Import | 68,0 | 141,7 | 78,6 |
| Saldo | - 48,5 | - 117,2 | - 73,3 |
| **Turkmaniston** | **91,9** | **211,4** | **72,0** |
| Eksport | 1,9 | 4,7 | 4,1 |
| Import | 90,0 | 206,7 | 67,9 |
| Saldo | - 88,1 | - 202,0 | - 63,8 |
| **Eron Islom Respublikasi** | **65,9** | **67,8** | **61,8** |
| Eksport | 52,3 | 41,7 | 51,7 |
| Import | 13,7 | 26,1 | 10,1 |
| Saldo | 38,6 | 15,6 | 41,6 |
| **Turkiya** | **14,4** | **41,6** | **55,9** |
| Eksport | 1,1 | 4,7 | 9,5 |
| Import | 13,3 | 36,9 | 46,4 |
| Saldo | - 12,2 | - 32,2 | - 36,9 |
| **Qozog`iston** | **27,5** | **34,5** | **32,3** |
| Eksport | 17,3 | 20,0 | 10,0 |
| Import | 10,2 | 14,5 | 22,3 |
| Saldo | 7,1 | 5,5 | - 12,3 |
| **Afg`oniston** | **4,3** | **34,1** | **19,4** |
| Eksport | 4,2 | 33,9 | 19,4 |
| Import | 0,1 | 0,2 | - |
| Saldo | 4,1 | 33,7 | 19,4 |

**BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| **Qirg'iz Respublikasi** | **4,1** | **28,5** | **19,0** |
| Eksport | 3,2 | 28,4 | 18,7 |
| Import | 0,9 | 0,1 | 0,3 |
| Saldo | 2,3 | 28,3 | 18,4 |
| **Koreya Respublikasi** | **5,1** | **44,3** | **18,4** |
| Eksport | 0,6 | 0,3 | 0,2 |
| Import | 4,5 | 44,0 | 18,2 |
| Saldo | - 3,9 | - 37,4 | -18,0 |
| **Germaniya** | **15,0** | **22,5** | **12,0** |
| Eksport | - | - | 0,2 |
| Import | 15,0 | 22,5 | 11,8 |
| Saldo | - 15,0 | - 22,5 | - 11,6 |
| **Tojikiston** | **1,6** | **3,1** | **5,6** |
| Eksport | 1,2 | 2,3 | 5,6 |
| Import | 0,4 | 0,8 | - |
| Saldo | 0,8 | 1,5 | 5,6 |
| **Polsha** | **1,3** | **3,5** | **5,4** |
| Eksport | 0,5 | 1,6 | 5,1 |
| Import | 0,8 | 1,9 | 0,3 |
| Saldo | - 0,3 | - 0,3 | 4,8 |
| **Ukraina** | **8,5** | **8,8** | **5,0** |
| Eksport | 0,7 | 1,9 | 2,2 |
| Import | 7,8 | 7,9 | 2,8 |
| Saldo | - 7,1 | - 5,0 | -0,6 |
| **Belarus Respublikasi** | **9,2** | **3,8** | **3,8** |
| Eksport | 0,3 | 0,5 | 0,3 |
| Import | 8,9 | 3,3 | 3,5 |
| Saldo | - 8,6 | - 2,8 | - 3,2 |

**BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| **Ozarbayjon** | **0,3** | **0,5** | **2,5** |
| Eksport | 0,3 | 0,5 | 0,6 |
| Import | - | - | 1,9 |
| Saldo | 0,3 | 0,5 | -1,3 |
| **Estoniya** | **-** | **0,1** | **2,0** |
| Eksport | - | 0,1 | 1,7 |
| Import | - | - | 0,3 |
| Saldo | - | 0,1 | 1,4 |
| **Italiya** | **2,0** | **0,5** | **1,8** |
| Eksport | 0,1 | - | |
| Import | 1,9 | 0,5 | 1,8 |
| Saldo | - 1,8 | - 0,5 | - 1,8 |
| **Litva** | **1,9** | **3,9** | **1,7** |
| Eksport | 0,7 | 0,3 | 0.9 |
| Import | 1,2 | 3,6 | 0.8 |
| Saldo | - 0,5 | - 3,3 | 0.1 |
| **Avstriya** | **0,4** | **0,5** | **1,6** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | 0,4 | 0,5 | 1,6 |
| Saldo | - 0,4 | - 0,5 | - 1,6 |
| **Iroq** | **-** | **-** | **1,5** |
| Eksport | - | - | 0,4 |
| Import | - | - | 1,1 |
| Saldo | - | - | - 0,7 |

Viloyatimizda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020- yil yanvar-sentabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 52,0 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2019- yilning mos davriga nisbatan ulushi 2,0 % ga kamaygan.

**BUXORO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAV-LATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, *% da*)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020- yil yanvar-sentabr oylarida 2019- yilning mos davriga nisbatan oshgan (2,0 % ga) va jami TSA dagi ulushi 48,0 % ni tashkil etdi.

# BUXORO VILOYATINING EKSPORTI
# (2020-yil yanvar - sentabr)

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda eksportyorlar soni 254 tani tashkil etib, ular tomonidan 167,0 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan 16,8 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 95,6 % ni tashkil etib, ular asosan nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (31,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (31,9 %) mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar (9,2 %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

XSST BO`YICHA EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-sentabr)

| XSST tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar |
| **Jami eksport** | **167,0** | **65,7** | **101,3** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 17,6 | 11,4 | 6,2 | 10,5 | 17,3 | 6,1 |
| Ichimliklar va tamaki | 1,2 | 1,2 | - | 0,7 | 1,8 | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 53,3 | 5,0 | 48,3 | 31,9 | 7,5 | 47,7 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 15,4 | 1,1 | 14,2 | 9,2 | 1,7 | 14,0 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 3,7 | 1,9 | 1,9 | 2,2 | 2,8 | 1,9 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 2,3 | 2,1 | 0,2 | 1,4 | 3,2 | 0,2 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 51,8 | 25,8 | 26,1 | 31,0 | 39,2 | 25,7 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,3 | 0,2 | - | 0,2 | 0,4 | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 14,2 | 13,6 | 0,6 | 8,5 | 20,7 | 0,6 |
| Xizmatlar | 7,3 | 3,6 | 3,8 | 4,4 | 5,5 | 3,7 |

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O`SISH SUR`ATLARI (2020- yil yanvar-sentabr)

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha turli xil tayyor buyumlar hamda Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarga to`g`ri kelmoqda.

| XSST tarkibi | 2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **83,2** | **80,5** | **85,1** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 37,6 | 30,2 | 67,8 |
| Ichimliklar va tamaki | 178,7 | 178,7 | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 86,3 | 65,5 | 89,2 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 45,5 | 42,8 | 45,8 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 40,4 b. | 20,1 b. | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 172,0 | 166,8 | 2,5 b. |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 145,5 | 127,7 | 168,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 29,9 | 68,4 | 3,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 2,4 b. | 3,3 b. | 33,0 |
| Xizmatlar | 52,6 | 50,0 | 55,3 |

**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, *% da*)**

2020- yil yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-sentabriga nisbatan, ichimliklar va tamaki, Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar, Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda Turli xil tayyor buyumlar guruhlarida o`sish kuzatildi.

| XSST tarkibi | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 16,1 | 23,3 | 10,5 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,4 | 0,3 | 0,7 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 53,9 | 30,8 | 31,9 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 2,9 | 16,8 | 9,2 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | - | - | 2,2 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 0,9 | 0,7 | 1,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 14,4 | 17,8 | 31,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | - | 0,4 | 0,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 1,4 | 3,0 | 8,5 |
| Xizmatlar | 10,1 | 7,0 | 4,4 |

## XSST BO`LIMI BO`YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020- yil yanvar-sentabr)

| XSST bo`limi nomi | Mln. AQSh dollari | 2019- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Sabzavotlar va mevalar | 11,0 | 31,2 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 4,4 | 95,7 |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 0,4 | - |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 0,04 | 1,0 |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari | 0,09 | 9,0 b. |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | 1,1 | 183,3 |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari | 0,6 | 150,0 |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari** | | |
| To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 43,3 | 88,9 |
| Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 4,4 | 68,8 |
| Metall rudalari va metall parchalari | 0,1 | 14,3 |
| Qog`oz massasi va makulatura | - | - |
| Moy olinadigan urug`lar va mevalar | 0,1 | 1,3 |
| **Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar** | | |
| Tabiiy yoki sun`iy gaz | - | - |
| Elektr toki | 0,06 | 75 |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar | 14,7 | 44,8 |
| **Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar** | | |
| O`simlik moylari va yog`lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan) | 3,7 | 37,0 b. |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar** | | |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 0,02 | 2,2 b. |
| Noorganik kimyo moddalari | 0,08 | 4,0b. |
| O`g`itlar | 0,5 | - |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 0,2 | 50,0 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 0,2 | 20,0 b. |

## XSST BO`LIMI BO`YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020- yil yanvar-sentabr)

| | | |
|---|---|---|
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar | 41,5 | 151,5 |
| Rangli metallar | 1,4 | 0,4 |
| Cho`yan va po`lat | 0,05 | - |
| Metalldan tayyorlangan buyumlar | 1,4 | 3,5 b. |
| Ruda bo`lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 3,2 | 97,0 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar | 0,09 | 9,0 b. |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | 0,02 | 10,0 b. |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | - | - |
| Sanoat uchun maxsus bo`lmagan mashinalar va ularning detallari | 0,04 | 12 |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar | 0,02 | 20 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 11,3 | 3,4 b. |
| Poyabzal | 0,2 | 2,0 b. |
| Har xil tayyor buyumlar | 1,5 | 88,2 |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 0,08 | 5,7 |
| Yo`l anjomlari, sumkalar va shunga o`xshash buyumlar | 0,5 | 125,0 |
| **Boshqa tovarlar** | | |
| Maxsus operatsiyalar va turlariga ko'ra tasniflanmagan tovarlar | - | - |
| **Xizmatlar** | | |
| Transport xizmatlari | 3,3 | 61,1 |
| Safarlar (turizm) | 1,5 | 31,2 |
| Telekommunikatsiya, axborot va kompyuter xizmatlari | - | - |
| Moliya xizmatlari | - | - |
| Boshqa biznes xizmatlari | 0,5 | 100,0 |

2020- yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yil yanvar-sentabrdagi 59,3 % dan 2020- yil yanvar-sentabrida 39,4 % ni tashkil etdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 60,6 % ni tashkil etdi.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi,** *% da***)**




2020- yilning yanvar-sentabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Eron Islom Respublikasi (eksport umumiy hajmining 30,9 %), Rossiya Federatsiyasi (14,4 %), Afg`oniston (11,6 %), Qirg`iz Respublikasi (11,2 %), Qozog`iston (6,0 %) va Turkiya (5,7 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 81,3 % ni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Afg`onistonning bir pog`onaga tushishi hisobiga, Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha geografiyasi 2019- yilning mos davriga nisbatan 38 davlatdan 39 davlatga ko’paydi.

## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020- yil yanvar-sentabr, *% da*)




## BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O`SISH SUR`ATLARI (yanvar-sentabr)

| Davlatlar | Mln.AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | O'rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil |
| Eron Islom Respublikasi | 41,7 | 51,6 | 79,7 | 123,7 | 1 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 22,9 | 24,1 | 149,6 | 105,2 | 5 | 2 |
| Afg`oniston | 34,0 | 19,4 | 8,1 b. | 57,1 | 2 | 3 |
| Qirg`iz Respublikasi | 28,4 | 18,6 | 8,8 b. | 65,5 | 3 | 4 |
| Qozog`iston | 19,9 | 10 | 115,0 | 50,3 | 6 | 5 |
| Turkiya | 4,7 | 9,5 | 4,3 b, | 2,0 b | 9 | 6 |
| Tojikiston | 2,3 | 5,6 | 191,6 | 2,4 b | 10 | 7 |
| Xitoy | 24,5 | 5,3 | 125,6 | 21,6 | 4 | 8 |
| Polsha | 1,6 | 5,1 | 3,2 b. | 3,2 b | 13 | 9 |
| Turkmaniston | 4,7 | 4,1 | 2,5 b. | 87,2 | 8 | 10 |
| Ukraina | 1,8 | 2,2 | 2,6 b. | 122,2 | 11 | 11 |
| Estoniya | 0,1 | 1,7 | - | 17,0 b | 26 | 12 |
| Litva | 0,3 | 0,8 | 42,8 | 2,6 b | 22 | 13 |
| Bosniya va Gersogovinna | - | 0,7 | - | - | 37 | 14 |
| Singapur | 0,9 | 0,7 | 2,2 b. | 77,8 | 15 | 15 |
| Ozarbayjon | 0,5 | 0,7 | 166,6 | 140,0 | 18 | 16 |
| Latviya | - | 0,6 | - | - | 27 | 17 |
| Iroq | - | 0,4 | - | - | 29 | 18 |
| Pokiston | 0,3 | 0,4 | 100 | 133,3 | 23 | 19 |
| Belarus | 0,5 | 0,3 | 166,6 | 60 | 17 | 20 |

**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI** (yanvar-sentabr, ulushi, *% da*)




Xizmatlar eksporti hajmi 7,4 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 4,4 % ini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 47,1 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (57,4 %) va turizm (23,0 %) xizmatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Moliyaviy xizmatlar (12,1 %) va boshqa xizmatlar umumiy hajmda 7,5 % ni tashkil etgan.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 11,2 mln. dollar qiymatli 24,8 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019- yilning mos davriga nisbatan 27,6 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining

eksport tarkibiga qaralsa, 6,7 mln. AQSh dollariga teng 18,7 ming tonna sabzavot, shuningdek, 4,5 mln. AQSh dollari qiymatidagi 6,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOT-LARI EKSPORTI**

Hukumat tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOT-LARI EKSPORTI (2020- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)**




Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog`iston (42,0 %), Rossiya Federatsiyasi (35,7 %), Xitoy Xalq Respublikasi (6,3 %) davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

**MEVA - SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (yanvar-sentabr)**

| Davlatlar | 2019- yil | | | 2020- yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da |
| **Qozog`iston** | 51,2 | 16,5 | 42,5 | 15,7 | 4,7 | 42,0 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | 1,8 | 1,0 | 2,6 | 5,3 | 4,0 | 35,7 |
| **XXR** | 2,4 | 1,6 | 4,1 | 1,1 | 0,7 | 6,3 |
| **Qirg'iz Respublikasi** | 3,6 | 17,3 | 44,6 | 0,5 | 0,4 | 3,6 |
| **Afg`oniston** | 0,2 | 0,05 | - | 0,4 | 0,3 | 2,7 |
| **Bellarus** | 0,4 | 0,2 | 0,5 | 0,1 | 0,08 | 0,7 |
| **Turkmaniston** | 0,7 | 0,1 | 0,3 | 0,06 | 0,06 | 0,5 |
| **Boshqa davlatlar** | 4,9 | 2,1 | 5,4 | 1,5 | 0,9 | 8,0 |

**-qiymat ifodasidan*

**TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI**

To`qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o`rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo`shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko`rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 60,0 mln. AQSh dollarlik to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 35,9 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan, 1,5 b. ga ko'paygan.

**TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)**

| Tovar nomi | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari | 1,2 | 3,1 | 12,3 |
| Gilamlar | 0,3 | 0,2 | 0,3 |
| Boshqa to`qimachilik mahsulotlari | 3,3 | 3,2 | 2,6 |
| Paxtadan gazlamalar | 0,3 | 0,3 | 0,1 |
| Ipak va ipak mahsulotlari | 4,4 | 4,5 | 2,2 |

Viloyatning to`qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag`batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

**DAVLATLAR KESIMIDA TO`QIMACHI-LIK MAHSULOT-LARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, ming. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 9,5 | 15,3 | 17,2 |
| Qirg`iz Respublikasi | 1,2 | 3,1 | 10,7 |
| Eron Islom Respublikasi | 51,5 | 8,1 | 7,8 |
| Turkiya | 0,7 | 4,6 | 7,8 |

# BUXORO VILOYATINING IMPORTI
# (2020- yil yanvar-sentabr)

2020- yil yanvar-sentabr oylarida import hajmi 421,2 mln. AQSh dollarini va 2019- yilning mos davriga nisbatan 58,1 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mineral yoqilg`I, yog`lash moylari va shunga o`xshash mahsulotlar (41,3 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (23,2 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (9,6 %) hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (7,7 %) hisobiga to`g`ri keldi.

**XSST BO`LIMI BO`YICHA IMPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-sentabr, ulushi,** *% da***)**



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-sentabr)

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko’ra, 2020-yilning yanvar-sentabrida import qilingan tovarlar hajmi, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 303,8 mln. AQSh dollariga kamaydi va 421,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

| XSST tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami import** | **421,2** | **240,1** | **181,1** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 15,2 | 12,8 | 2,4 | 3,6 | 5,3 | 1,3 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,1 | - | 0,1 | - | - | 0,1 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 16,1 | 13,2 | 2,9 | 3,8 | 5,5 | 1,6 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 172,8 | 171,3 | 1,5 | 41,0 | 71,3 | 0,8 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 0,5 | 0,5 | - | 0,1 | 0,2 | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 40,5 | 15,6 | 24,9 | 9,6 | 6,5 | 13,7 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 33,3 | 19,1 | 14,2 | 7,7 | 8,0 | 7,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 97,6 | 6,7 | 90,9 | 23,2 | 2,8 | 50,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 44,9 | 0,9 | 44,0 | 10,7 | 0,4 | 24,3 |
| Xizmatlar | 0,2 | - | 0,2 | - | - | 0,1 |

Importning eng katta ulushi, jumladan, mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar (71,3 %), Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O`SISH SUR'ATLARI (2020- yil yanvar-sentabr)

o`xshash, mahsulotlar (6,5 %) Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari (5,5 %), Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,3 %) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush asosan mashina va transport asbob-uskunalar (50,2 %) hamda Turli xil tayyor buyumlar (24,3 %), hissasiga to`g`ri keladi.

| XSST tarkibi | 2019- yil yanvar-sentabriga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **58,1** | **57,4** | **59,1** |
| **shu jumladan:** | | | |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | 97,5 | 103,7 | 74,4 |
| **Ichimliklar va tamaki** | - | - | - |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari** | 132,5 | 122,4 | 2,6 b. |
| **Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar** | 49,1 | 48,8 | 3,3 b. |
| **Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar** | 3,3 b. | 3,3 b. | 21,3 b. |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar** | 125,9 | 159,4 | 110,8 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | 73,8 | 92,6 | 58,0 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | 52,2 | 58,1 | 51,8 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | 55,5 | 40,7 | 55,9 |
| **Xizmatlar** | 37,8 | - | 37,8 |

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar 3,3 b. ga, nooziq-ovqat xomashyosi, yoqilg`idan tashqari importi esa 32,5 % ga oshdi.

## XSTT BO`YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2020- yil yanvar-sentabr 2019-yil yanvar-sentabrga nisbatan, *% da*)

| XSST tarkibi | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| **shu jumladan:** | | | |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | 1,4 | 2,1 | 3,6 |
| **Ichimliklar va tamaki** | - | - | - |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari** | 5,3 | 1,6 | 3,8 |
| **Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar** | 56,4 | 48,5 | 41,0 |
| **Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar** | 0,1 | - | 0,1 |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar** | 5,4 | 4,5 | 9,6 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | 6,9 | 6,2 | 7,9 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | 21,1 | 25,8 | 23,2 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | 3,4 | 11,2 | 10,7 |
| **Xizmatlar** | 0,1 | 0,1 | 0,1 |

| Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | o'zgarish sura'tlari, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 6,1 | 87,1 |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | 0,9 | 36,0 b. |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 1,2 | 2,1 b. |
| Sabzavotlar va mevalar | 0,2 | 17,7 |
| Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar | 0,1 | 14,3 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari | - | - |
| Ichimliklar | 0,1 | - |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari** | | |
| Metall rudalari va metal parchalari To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 0,05 | 2,3 b. |
| Probka va yog`och-taxtalar | 10,2 | 138,5 |
| Moy olinadigan urug`lar va mevalar | 0,2 | 12,5 |
| O`g`itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo | 0,7 | 85,9 |
| Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 1,9 | 5,8 b. |
| **Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar | 157,8 | 49,8 |

**XSTT BO`YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2020- yil yanvar-sentabr 2019- yil yanvar-sentabrga nisbatan,** *% da)*

| | | |
|---|---|---|
| Ko`mir, koks va briketlar | 0,2 | 33,3 |
| Elektr toki | - | - |
| **Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar** | | |
| O`simlik moylari va yog`lari | 0,5 | 2,0 b. |
| Hayvon va o`simlik moylari va yog`lari | - | - |
| Hayvonlar moylari va yog`lari | - | - |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar** | | |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 0,3 | 100,0 |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 8,4 | 101,2 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 5,0 | 73,5 |
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari | 3,3 | 2,5 b. |
| Organik kimyo moddalari | 3,2 | 80,0 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| Cho`yan va po`lat | 8,7 | 87,8 |
| Metalldan tayyorlangan buyumlar | 2,8 | 80,0 |
| To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar | 3,4 | 117,2 |
| Probka va yog`ochdan tayyorlangan buyumlar | 0,5 | 50,0 |
| Ruda bo`lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 4,9 | 32,9 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar | 39,3 | 40,6 |
| Avtomobillarning ehtiyot qismlari | - | - |
| Avtomobillar, asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtoulovlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo'ljallangan transport vositalaridan tashqari) | - | - |
| Sanoat uchun maxsus bo`lmagan mashinalar va ularning detallari | 22,8 | 98,7 |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | 0,2 | 2,5 b. |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | 6,2 | 196,8 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 3,9 | 95,1 |
| Blokli binolar, suv o`tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 32,8 | 50,0 |
| Har xil tayyor buyumlar | 1,1 | 64,7 |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o`xshash mahsulotlar | 0,3 | 150,0 |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 0,03 | 42,9 |
| **Boshqalar** | | |
| Maxsus operatsiyalar va turlarga ko'ra tasniflanmagan tovarlar | - | - |

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining kamayishiga sabzavot va mevalar (87,1 % ga pasaygan), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (17,7 % ga) importining kamayishi ta`sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar importi kamayishiga esa, boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar (26,5 %) hamda organik kimyo moddalari (20,0 %) bevosita ta`sir etgan.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulush % da)**




Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasi umumiy import hajmida 35,0 % ulushi bilan Xitoy Xalq Respublikasini (19,3 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.

**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR (yanvar-sentabr)**

| Davlatlar | Mln. AQSH dollari | | O`sish sur`ati, % da | | O`rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil |
| Rossiya Federatsiyasi | 186,1 | 141,2 | 82,4 | 75,8 | 2 | 1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 141,7 | 78,7 | 2,1 b. | 55,5 | 3 | 2 |
| Turkmaniston | 206,7 | 67,9 | 2,3 b. | 32,8 | 1 | 3 |
| Turkiya | 36,9 | 46,4 | 2,8 b. | 125,9 | 5 | 4 |
| Qozoqiston | 14,5 | 22,3 | 142,5 | 153,5 | 8 | 5 |
| Kareya Respublikasi | 44,0 | 18,2 | 9,8 b. | 41,4 | 4 | 6 |
| Germaniya | 22,5 | 11,8 | 149,9 | 52,5 | 7 | 7 |
| Eron Islom Respublikasi | 26,1 | 10,1 | 190,9 | 38,7 | 6 | 8 |
| Belarus | 3,4 | 3,5 | 38,3 | 101,5 | 14 | 9 |
| Ukraina | 6,9 | 2,8 | 88,4 | 40,0 | 9 | 10 |
| Ozarbayjon | - | 1,9 | - | - | 63 | 11 |
| Italiya | 0,5 | 1,7 | 27,4 | 3,2 b. | 25 | 12 |
| Avstriya | 0,5 | 1,6 | 111,6 | 3,2 b. | 26 | 13 |
| Belgiya | 5,1 | 1,5 | 2,3 b. | 29,6 | 11 | 14 |
| Iroq | - | 1,1 | - | - | 65 | 15 |
| Litva | 3,6 | 0,8 | 3,1 b. | 22,4 | 13 | 16 |
| Fransiya | 1,0 | 0,8 | 2,2 b. | 82,4 | 20 | 17 |
| BAA | 2,0 | 0,8 | 3,8 b. | 37,8 | 16 | 18 |
| Gonkong | - | 0,8 | - | - | 31 | 19 |
| Hindiston | 1,1 | 0,7 | 2,3 b. | 64,8 | 19 | 20 |

2020- yil yanvar-avgust bilan taqqoslaganda import bo`yicha eng yuqori oltilikda o`zgarish kuzatilmadi.

**VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020- yil yanvar- sentabr,** *% da***)**

2020- yil yanvar-sentabr oylari yakuni bo'yicha viloyatda 58 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.




Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston, Turkiya, Qozog`iston, Koreya Respublikasi va Germaniya) jami importning 91,8 % ini tashkil qiladi, bu 386,5 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo`limi.**
**Tel.:65-223-75-63**